

Energetika sohasidagi yirik loyihalar ko'rib chiqildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-iyul kuni Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda energetika sohasida amalga oshirilayotgan yirik loyihalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari hamkorligi jadal rivojlanmoqda. Joriy yil boshidan buyon o'zaro savdo hajmi ikki barobar ko'paydi, mamlakatimizda 45 ta yangi qo'shma korxonalar tashkil etildi.

O'zaro manfaatli hamkorlik ko'plab iqtisodiyot tarmoqlarini qamrab olgan. Shulardan eng muhimlaridan biri energetikadir.

O'tgan yili Navoiy viloyatida yurtimizdagi birinchi quyosh elektr stansiyasi aynan Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi bilan hamkorlikda ishga tushirilgan edi. Bugungi kunda u bir kechakunduzda 1 million 180 ming kilovatt soat elektr energiyasi yetkazib bermoqda.

Bu sohada yana 5 ta yirik loyihani amalga oshirish kelishilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati qariyb 3 milliard dollarni tashkil etadi. Xususan, "Mubadala" va "Taqa" kompaniyalari bilan hamkorlikda Talimarjon issiqlik elektr stansiyasini xususiylashtirish va quvvatini oshirish, "Masdar" kompaniyasi bilan Navoiy viloyatida shamol, Surxondaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida quyosh elektr stansiyalarini qurish mo'ljallangan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, joriy yildan Birlashgan Arab Amirliklari bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va muvofiqlashtirish bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yildi.

Yig'ilishda energetika sohasidagi loyihalar ijrosi ana shu tizim asosida ko'rib chiqildi.

Mutasaddilar loyihalarning hozirgi holati va yil yakunigacha mo'ljallangan chora-tadbirlar yuzasidan axborot berdi.

Davlatimiz rahbari bu loyihalar energetika tizimi barqarorligiga hamda iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya oqimi yanada ko'payishiga zamin yaratishini ta'kidladi.

Talimarjon issiqlik elektr stansiyasini xususiylashtirish haqida so'z borar ekan, bu loyiha issiqlik elektr stansiyalarini boshqarish va energiya ishlab chiqarishda namunaviy bo'lishi kerakligi qayd etildi.

“Masdar” kompaniyasi bilan qayta tiklanuvchi energetika sohasida amalga oshiriladigan loyihalar 2030-yilgacha mamlakatimizda “yashil energetika” ulushini 25 foizga yetkazishda muhim qadam bo'ladi. Shu bois, loyihalarni amalga oshirish bo'yicha zarur bitim va hujjatlar imzolashni tezlashtirish muhimligi ko'rsatib o'tildi.



Manba